

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**TUPROQ BIOGEOKIMYOSI – BIOSFERANING BARQAROR  
RIVOJLANISHI VA MUHOFAZASI**

**xalqaro ilmiy  
anjuman materiallari**

**TO'PLAMI**

---

**СБОРНИК**

**материалов международной  
научной конференции**

**БИОГЕОХИМИЯ ПОЧВ – УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ И  
ОХРАНА БИОСФЕРЫ**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.D.Mirkomilov, N.A.Xomidova, T.A.Fayziyeva, D.S.Ro'zaliyeva, G.T.Sotiboldiyeva, S.A.Abduxakimova</b>	
Dorivor Qora zirkni yetishtirishda mineral va organik o'g'itlarning ahamiyati .....	207
<b>M.X.Diyorova, S.X.Islomova, Sh.Normurodova</b>	
Sug'oriladigan qumli cho'l va taqirli tuproqlarining fizik xossalari .....	210
<b>M.A.Raximov, R.M.Azizov, M.E.Nuraddinova</b>	
Asalari zararkunandalari (chala rivojlanish sikldagi hasharotlar turkumi) .....	214
<b>M.A.Mirzayeva, F.M.Komiljonova</b>	
Dorivor o'simlik Zafaron yetishtirish texnologiyasi .....	219
<b>Q.A.Davronov, N.I.Teshaboyev</b>	
G'o'zaning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga bargidan mikroelementli o'g'itlar bilan oziqlantirish muddatlari va me'yorlarining ta'siri .....	223
<b>M.P.Yuldasheva, X.O.Olimjonova, G.Baxtiyorova</b>	
Farg'ona vodiyisidagi ayrim baliqchilik xo'jaliklari algoflorasining bioxilma-xilligi .....	228
<b>П.К.Турдалиева</b>	
Исследование содержания флавоноидов и биоэлементов в надземной части <i>Taraxacum officinale wigg. s.L.</i> произрастающей в Южной Фергане .....	234
<b>M.A.Raximov, R.O.Azizov, M.E.Nuraddinova</b>	
Asalarichilikda nasilchilik ishlarini tashkil etish .....	239
<b>N.I.Teshaboyev</b>	
Dehqonchilikda tuproqlarni muhofaza qilishning ahamiyati .....	242
<b>П.К.Турдалиева</b>	
Новый принцип создания биологически активной добавки (бад) к пище, применяемого при лечении и профилактике вирусных заболеваний .....	245
<b>G.A.Abdullayeva, Q.A.Davronov, Z.T.Sodiqova</b>	
G'o'za parvarishida turli mikroelementli o'g'itlarni qo'llash me'yor va muddatlarini paxta hosiliga ta'siri .....	248
<b>M.A.Mirzayeva, F.K.Jo'rabloyeva</b>	
Oq va qora (Susame) kunjut o'simligini foydali xususiyatlari va yetishtirish agrotexnikasi .....	252
<b>Sh.Q.Yuldasheva, M.I.Teshaboyeva, D.A.Oxunova, M.U.Akmajonova</b>	
Nok bog'ini barpo etishda tuproq unumdorligini ahamiyati .....	256
<b>M.B.Xoliqov, N.K.Junaydullayeva, K.E.Mamarasulova</b>	
Takroriy ekilgan mosh o'simligining tuproq unumdorligiga ta'siri .....	260
<b>N.N.Aminjonova, T.A.Fayziyeva, S.X.Zakirova</b>	
Tosh-shag'alli turoqlar unimorligini oshirishning No-till texnologiyasi .....	264
<b>С.Х.Закирова, Т.А.Файзиева, Ф.О.Камолова, Д.С.Рузалиева</b>	
Питательные вещества в песках центральной ферганы .....	267
<b>M.A.Mirzayeva, M.A.Abdurahimova, D.A.Akbaraliyeva M.Toshturg'unova</b>	
Dorivor Oq karrak (Rastoropsha) o'simligini yetishtirish texnologiyasi, biologiyasi, shifobaxsh xususiyatlari va sohalarda qo'llanilishi .....	271
<b>R.Komilov, A.A.Abdurahmonov</b>	
Amarant dorivor o'simligini (Amaranthus) yetishtirish agrotexnikasi va uni dorivorlik xususiyatlari .....	274

**4-SHO'BA: TUPROQSHUNOSLIK, AGROKIMYO VA TUPROQ BIOGEOKIMYOSINI  
O'QITISHNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI**

<b>U.B.Mirzayev</b>	
Tuproqshunoslik va agrokimyo fanlarini o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini tadbiq etish .....	279
<b>X.A.Abduxakimova, G.T.Sotiboldiyeva, M.A.Muhammadjonova</b>	
Tuproqshunoslik fanlarini o'qitishda zamonaviy texnologiyalarini qo'llash va interaktiv usullardan foydalanish .....	284
<b>M.M.Azimov</b>	
Tuproqshunoslik va zamonaviy ta'lim muammolarining qisqacha tahlili .....	288
<b>Sh.Y.Eshpulatov, Sh.E.Yursunova</b>	
Mahsulor uzum navlarini yetishtirishda tuproqqa ishlov berishning ahamiyati .....	292



UO'K 631.4: 631.6

## TOSH-SHAG'ALLI TUROQLAR UNIMORLIGINI OSHIRISHNING NO-TILL TEXNOLOGIYASI

### NO-TILL ТЕХНОЛОГИЯ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ПЛОДОРОДИЯ КАМЕНISTO- ГАЛЕЧНИКОВЫХ ПОЧВ

### ON NO-TILL TECHNOLOGY FOR IMPROVING THE FERTILITY OF STONE-GRAVEL SOILS

**Aminjonova Navruzaxon Ne'matjon qizi<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti, magistrant.

**Fayziyeva Tabassumxon Abdullajon qizi<sup>2</sup>**

<sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti, talaba.

**Zakirova Sanoatxon Xomdamovna<sup>3</sup>**

<sup>3</sup>Farg'ona davlat universiteti, q.x.f.d., professor.

#### *Annotatsiya*

*Bu maqolada no till texnologiyasi yordamida tuproqlarimizni qayta o'z holiga qaytarish, turli darajada zararlangan yerlarni ekin ekish uchun sifatlari holatga keltirish, chet el tajribasidan foydaanib shamol va suv eroziyasi rivojlangan, sho'rланmagan maydonlarda o'tkazish yuqori samara beradi va uning maydonini kengaytirish zamon talabi hisoblanadi.*

#### *Аннотация*

*В данной статье констатируется, что с помощью технологии no-till, восстановления почв до качественного состояния для возделывания, использования зарубежного опыта в районах, где развита ветровая и водная эрозия, без засоления является высокой эффективностью, а расширение его площади является современным требованием.*

#### *Abstract*

*In this article, it is stated that with the help of no-till technology, restoring the soils to a quality condition for cultivation, using foreign experience in areas where wind and water erosion is developed, without saline is a high efficiency and expanding its area is a modern requirement.*

**Kalit so'zlar:** tuproq, unumdorlik, agrotexnik tadbirilar, sug'orish, innovatsion usullar, yerga ishlov berish, no-till texnologiya, qumlar

**Ключевые слова:** почва, продуктивность, агротехнические мероприятия, орошение, инновационные методы, обработка почвы, нулевая технология, пески.

**Key words:** soil, fertility, agrotechnical measures, irrigation, innovative methods, tillage, no-till technology, sands.

#### KIRISH

Tuproq unumdorligi deganda uning o'simliklarni suv va oziqa moddalar bilan ta'minlash qobiliyati tushuniladi. Tuproq unumdorligi yerga oqilona ta'sir etganda yaxshilanib boradi, noto'g'ri ishlov berilganda esa aksincha pasayib boradi. Tuproq unumdorligi tabiiy va sun'iy turlarga bo'linadi. Tabiiy unumdorlik tabiiy omillar ta'sirida paydo bo'ladi. Hali inson qo'li tegmagan bo'z yerlar tabiiy unumdorlikka ega. Bunday unumdorlik tabiiy sharoit va tuproq paydo bo'lish jarayonidagi omillarga hamda tuproqning organik va mineral tarkibiga, fizikaviy, kimyoviy, biologik xossalariiga bog'liq holda yuqori yoki past bo'lishi mumkin. Sun'iy unumdorlik inson tomonidan yaratiladi. Dehqonchilikda qollaniladigan yerni ishlash, sug'orish, o'g'itlash, zaxini qochirish, sho'rini yuvish, almashtlab ekish kabi agrotexnik tadbirilar su'niy unumdorlikni vujudga keltiradi. Insonning xo'jalik faoliyati ta'sirida unumdorlik ma'lum darajada o'zgarishga yuz tutadi, unumdorlikning darajasi dehqonchilik madaniyati bilan bevosita bog'liq.

## 3-SHO'BA: TUPROQ-O'SIMLIK-HAYVONOT VA INSON ZANJIRIDA BIOGEOKIMYO

### ADABIYOTLAR TAHLLILI VA METODOLOGIYA

Tuproq unumdorligi potentsial va samarali unumdorlikka ham bo'linadi. Potentsial unumdorlik tuproqdag'i oziq elementlarining umumiyoq miqdorini ko'rsatadi. Bunga o'simliklar o'zlashtira olmaydigan va oson o'zlashtira oladigan shakldagi oziq moddalarning barchasi kiradi. Samarali unumdorlik tuproqdag'i o'simlik o'zlashtira oladigan oziq moddalalar miqdori bilan belgilanadi. Tuproqqa ilmiy asosda ishlov berish, o'g'itlash, melioratsiyalash orqali tuproq xossalari tubdan yaxshilash, zararli tuzlarni yuvish, ortiqcha suvni qochirish, namlik yetishmaganda sug'orish, ortiqcha ishqoriylik yoki kislotalikni neytrallash eroziya jarayonini oldini olish kabi tadbirlar potentsial unumdorlikni samarali unumdorlikka o'tishiga olib keladi [1].

Endilikda tuproqqa ishlov berishning yangi, innovatsion usullari joriy etilmoqdaki, ular FAO bo'yicha conservation agriculture, rus tilida "resursosberegayushie selskoe xozyaestvo" yoki nol ishlov berish texnologiyasi deb nom oldi. Bunday texnologiyalar yordamida tuproq o'zining dastlabki tabiiy, g'ovak, hollatiga qaytadi. Ushbu texnologiyalarda ag'darib haydalmagani uchun tuproqqa kuchli mexanik ta'sir berilmaydi. Bunda tuproqqa minimal darajada, faqat yuza qatlampagina ishlov berib haydaladi [2].

Shuningdek, keng tarqalgan, an'anaviy ag'darib haydash usulida tuproq ustki qismi o'simlik qoldiqlaridan tozalansa, resurs tejamkor texnologiyalarda, aksincha, ular tuproq ustki qatlamida mulcha sifatida saqlanib qoladi. Bu holat tuproqning issiqlik, suv rejimi, suv tartiboti va yana eng ahamiyatlisi, eroziyadan saqlab, xususan suv va shamol ta'siridagi yemirilish jarayonini nivellirlaydi, ya'ni keskin kamaytiradi.

1871-yilda rus olim-agronomi Evgeniy Ovsinskiy ushbu texnologiyalarni qo'llash va shu orqali qishloq xo'jalik ekinlarini parvarishlashda tuproq tabiiy holatini saqlab qolishni taklif etadi. Uning o'zi o'sha yili ushbu texnologiyalarni qo'llagan. Lekin, samara kutilganidek bo'lishiga qaramasdan, tuproqni begona o'tlar bosib ketishi tufayli umumiyoq natija to'la yaxshi bo'limgan. Lekin, ikkinchi tomondan o'sha davrda gerbitsidlar qo'llash yo'lga qo'yilmagan edi [8].

AQSH va Kanadada ushbu texnologiyalar (no-till) kechroq, 1931-1935 yillarda tadbiq etila boshlandi. Bu davrda shimoliy amerikadagi changli qo'ng'ir tuproqlar o'zlashtirilgan, xususiy fermalar tijorat yo'nalishida umuman foydalanimagan tuproqqa urug' qadovchi seyalkalarni tajribadan o'tkazishib, ushbu texnologiyalarni ommaviylashib ketishiga olib keldilar [9].

Dunyoning qishloq xo'jaligi amaliyotida Isroiil, Misr, Xitoy kabi davlatlarda ishlab chiqarish samaradorligi juda past bo'lgan qumli yerbargacha qo'shimcha oziqa berish yo'li bilan paxta hosildorligini gektariga 32-40 sentner olish imkoniyati yaratilmoqda. Bundan tashqari, turli agrotexnologik tadbirlarni qumli va qumloqli yerbarga qo'llash orqali oziqa moddalalar bilan boyitish, unumdorligini tiklashva oshirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalar qo'llanilmoqda [6,7].

### NATIJA VA MUHOKAMA

1950-yillarda Qozog'istonning qumli qo'ng'ir tuproqlarida o'tkazilgan tajribalar "Nol" xarakterda bo'lsada, harqalay, ag'darmay yuza yumshatuvchi kultivatorlar qo'llash orqali amalga oshirildi.

Dunyoda qumliklarining xossalari, genezisi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: qumliklar va qum barxanlarini eroziyadan saqlash; qumli tuproqlar agrofizikaviy, agrokimiyoviyligini xossalarni yaxshilash; qumli va yengil tuproqlarning unumdorligini oshiruvchi agrotexnologiyalarni takomillashtirish; resurs va energiya tejarnokor, iqtisodiy samarali texnologiyalarni ishlab chiqishga qo'yilgan masalalar quyidagi mualliflar tomonidan har xil darajada o'rganilgan: A.Barayev, P.Besedin, Q.Mirzajonov, N.Bespakov, K.Blek, A.Gayel, V.Gussak, Sh.Nurmatov, L.G'ofurova, M.Pankov, A.Ramazanov, S.Rijov, T.Yakubov, S.Yimprosert va boshqalar. Shamol eroziyasi mexanizmi M.A.Sokolov, Q.Mirzajonovlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa, tuproq hosil bo'lish jarayonida shamolning o'rni V.V.Dokuchayev ishlarini negizida turadi. Cho'l mintaqasida shamol eroziyasini tadqiq etishda Gassen E.F., Nagawiecka N., Chodreti M., Knott P., Peric X., Herseni C. va boshqalarni ishlari katta ahamiyat kasb etadi [5].

G'arb fermerlari esa innovatsiya ular uchun kam harajat va yuqori daromad ekanligini darrov tushundilar va uni ishlab chiqarishga tadbiq etdilar.

Respublikamizda ham tuproq unumdorligini no-till texnologiyasi asosida ko'plab ishlar olib borilmoqda. Xususan kuzgi bug'doydan bo'shagan yerlarni no-till texnologiyasi asoslanib takroriy

**3-SHO'BA: TUPROQ-O'SIMLIK-HAYVONOT VA INSON ZANJIRIDA BIOGEOKIMYO**

ekinlar ekib tuproq unumdorligini sezilarli darajada oshirish yo'lga qo'yilgan. Bunda bug'doydan bo'shagan yerlardagi begona o't va qoldiq somon poyalarini maydalab mulchallahash, pushta egatlariiga takroriy ekin urug'larini ekish kabi tadbirlar amalga oshiriladi. Takroriy ekin sifatida dukkakli o'simliklardan foydalanish maqsadga muvofiqdir [3,4].

**XULOSA**

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qiladigan bo'lsak, bu texnologiya shamol va suv eroziyasi rivojlangan, sho'rланмаган maydonlarda o'tkazish yuqori samara beradi va uning maydonini kengaytirish zamон talabi hisoblanadi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. G'afurova L.A., Maxsudov X.M., Adel M.Yu. - "Eroziyaga uchragan neogen yotqiziklarda shakllangan bo'z tuproqlarning biologik faolligi". "O'zbekiston" - T.: 1998.
2. Qo'ziyev R. "O'zbekiston Respublikasi sug'oriladigan yerlarining hozirgi holati. Sug'oriladigan bo'z tuproqlar unumdorligini oshirish va uning ekologik muammolari". Ilmiy to'plam. Samarqand, 2002.
3. Zokirova S.X. Tuproqlar meloratsiyasi va gidrologiyasi. Darslik. Farg'ona 2021.
4. Zokirova S.X. Tuproqlar meloratsiyasi va gidrologiyasi. Amaliy mashg'ulot. Farg'ona 2024.
5. Мирзажонов К.М. Ирригационная эрозия почв и элементы борьбы с ней. Ташкент, 2016.
6. Zokirova S.X. Markaziy Farg'ona qumliklarining xossalari. Farg'ona 2023.
7. www.Agrochim.bis.2004.
8. www.Herba.msu.Ru.2004.
9. www.Peola.ru.glosari.2004